
UCH AVLOD UCHRASHUVI

Joriy yil 14 - may kuni Rishton tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabida Falsafa fanlari nomzodi, Turon fanlar Akademiyasining "Faxriy Akademigi" Allom Zohidoniy (Yusupov)ning hayoti, ichki ishlar organlarida bosib o'tgan yo'li, ilmiy faoliyati bo'yicha uch avlod uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbirga Rishton tuman prokurori, adliya maslahatchisi, 2-sektor rahbari R.R.Madaliev, tuman IIB boshliq o'rinbosari X.Teshaboev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Rishton tuman bo'linmasi rahbari D.Dodoboeva, Turon fanlar Akademiyasining "Faxriy Akademigi" Allom Zohidoniy (Yusupov)ning ustozlari M.Sobirov, E.Raimjonov, F.Raximov, S.Axmadqulova, T.Qoryog'dieva, G'.Xolboev, S.To'raqulova, O.To'xtasinova, X.Majedov, M.Mansurov va sinfdosh o'rtoqlaridan A.Xoldorov, Sh.To'ychievlar hamda Yoshlik MFY raisi Sh.Topivoldiev, Mevazor MFY raisi N.Otaqoziev, maktab o'quvchilaridan 45 nafari qatnashishdi. Tadbir Rishton tumanidagi 24-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari tomonidan tayyorlangan jonli ijrodagi musiqa sadolari ostida boshlandi. Tadbirni Rishton tuman prokurori, adliya maslahatchisi, 2-sektor rahbari R.R.Madaliev ochib Allom Zohidoniyning Turon fanlar Akademiyasining "Faxriy Akademigi" unvonini olganligi bilan qutlab esdalik sovg'alarini taqdim etdi va unga ilmiy yutuqlari bardavom bo'lishini tiladi. Shundan so'ng Rishton tumanidagi 24-bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, O'zbekiston Respublikasi kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi a'zosi, shoir-bastakor Ma'ruf Yunus ijrosidagi musiqa yangradi. Bundan tashqari Falsafa fanlari nomzodi, Turon fanlar Akademiyasining "Faxriy Akademigi" Allom Zohidoniy (Yusupov)ning "Ichki ishlar organlari Huquq-tartibot maskani salohiyatining ma'naviy-huquqiy asoslari" nomli yangi darsligining taqdimoti bo'lib o'tdi. Shundan so'ng Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Rishton tuman bo'linmasi rahbari D.Dodoboeva so'zga chiqib, jamiyat xayotidagi kitob-kitobsevarlikning o'rni, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan kitob mutoalasi bo'yicha siyosat va shu darslikdan 100 nushada shaxsan Rishton tuman hokimining xomiyligida chop ettirilganligini bildirib, darslikni tuman IIB boshliq o'rinbosariga sovg'a sifatida topshirdi. Rishton tuman IIB boshliq o'rinbosari, jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i, podpolkovnik Xabiddin Teshaboev muallifni yuksak ilmiy unvon bilan tabriklab, darslikning ahamiyati haqida gapirdi. Tadbir qatnashchilariga Rishton tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan tayyorlangan kuy-qo'shiqlar va sahna ko'rinishlari davraga yanada ko'tarinki kayfiyat bahsh etdi. Shu bilan bir qatorda tadbir boshlovchisi tomonidan ishtirokchilarni monitorga e'tibor qaratishni so'radi. Monitorida Allom Nizomovich Yusupovning Toshkent shahridagi hayoti va faoliyati haqidagi 20 daqiqalik lavha ko'rsatildi. Tadbir so'ngida so'z Falsafa fanlari nomzodi, Turon fanlar Akademiyasining "Faxriy Akademigi" Allom Zohidoniy va uning onasi Ro'zixon ayaga berildi. A.Yusupov hamda uning onasi tadbirda so'zga chiqqan va unga nisbatan iliq tilaklar bildirganlarga minnatdorchilik bildirdi va maktab davrida ta'lim bergan ustozlari M.Sobirov, E.Raimjonov, F.Raximov, S.Axmadqulova, T.Qoryog'dieva, G'.Xolboev, S.To'raqulova, O.To'xtasinova, X.Majedov, M.Mansurov va 3-maktab direktori N.Pattaevaga o'zining esdalik sovg'alarini taqdim etdi. Tadbir qatnashchilarning barchalarida katta taassurotlar uyg'otdi.

2022-05-14 18:34:20